



OILA PSIXOLOGIYASI VA UNING SHAXS RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

*Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy Universiteti
Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili
1-bosqich talabasi
Hamdamova Charos*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila psixologiyasi shaxs shakllanishining ilk va asosiy omili sifatida oilaviy muhit, jamiyatdagi o'rni, oiladagi muhabbat, e'tibor va ijtimoiy normalarini o'rgatuvchi asosiy muhit bo'lib, shaxsning o'ziga ishonchi va qadriyatlari ko'rib chiqiladi. Oilaviy munosabatlarning psixologik xususiyatlari, ota- ona tarbiya uslublari va oiladagi ijtimoiy-psixologik iqlimning bola shaxsiyati rivojiga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: axloqiy qadriyatlar, motivatsiya, shaxslararo munosabatlar, oila psixologiyasi, empatiya.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, globallashuv jarayonlari va axborot oqimining kuchayishi sharoitida oilaning tarbiyaviy va psixologik roli ortib bormoqda. Hammamizga ma'lumki, oila jamiyatning eng kichik ijtimoiy bo'g'ini bo'lib, shaxs shakllanishining birlamchi va eng muhim muhitidir. Insonning xarakteri, qadriyatlari, axloqiy qarashlari va ijtimoiy ko'nikmalari avvalo oilada shakllanadi. Shuningdek, sog'lom psixologik muhit hukm surgan oilada ravnaq topgan shaxs barkamol, mas'uliyatli va jamiyatga foydali inson bo'lib kamol topadi.

Hammamizga ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'ymoqda. Psixologik yondashuvlarning klassik laridan biri bo'lmish Vygotskiy (1978) o'zining madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida shaxs shakllanishi ijtimoiy kontekstda amalga oshishini va bu jarayonning markazida bola va kattalar o'rtasidagi muloqot, ijtimoiy interaktsiya, ya'ni, aynan oila turadiganini ta'kidlaydi. Vygotskiy fikriga ko'ra, bola o'ziga xos psixik



rivojlanish yo'nalishini atrof-muhitdagi shart-sharoitlar va oilaviy ijtimoiy tajriba orqali shakllantiradi. Bronfenbrenner (1986) esa inson taraqqiyotini ekopsixologik model orqali izohlagan holda oilani shaxs rivojlanishining eng yaqin va hal qiluvchi mikro-muhit elementi sifatida ko'rsatadi. Uningcha, bola rivojlanishida oilaviy tizimda mavjud bo'lgan muloqot sifati, emotsional bog'liqlik va ota-onaning shaxsiy modeli, bola xulq-atvori va shaxsiy xususiyatlariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya uslublari bo'yicha yetakchi tadqiqotchi Baumrind (1991) esa o'z asarlarida oilaviy tarbiyaning avtoritar, demokratik va befarq uslublari bolalar shaxsiyati rivojlanishida turlicha natija berishini ilmiy isbotlagan. Baumrind tajribalari ko'rsatganidek, demokratik tarzda ijobiy emotsional qo'llab-quvvatlov va qat'iy lekin mehribon nazorat uyg'unlashgan oilalarda o'sgan bolalar yuqori darajada mustaqillik, ijtimoiy moslashuvchanlik va psixologik barqarorlik namoyish etadi.

Oilaning ijtimoiy funktsiyalariga quyidagilar kiradi:

-**Reproduktiv funksiyasi**- avlodni davom ettirish;

-**Tarbiya funksiyasi** - farzandlarga ijtimoiy normalarni o'rgatish, ularni jamiyatga moslashtirish;

- **Iqtisodiy funksiyasi**- moddiy ehtiyojlarni ta'minlash va qo'llab-quvvatlash;

- **Emotsional - psixologik funksiyasi** - a'zolar o'rtasidagi hissiy yaqinlik, ruhiy ko'mak va barqarorlikni ta'minlash ;

- **Madaniy- funksional rol** - jamiyat qadriyatlarini avloddan-avlodga o'tkazish , milliy identitetni mustahkamlash ;

Muxtasar qilib aytganda, oila psixologiyasi shaxs rivojlanishining eng muhim va asosiy poydevori hisoblanadi. Chunki inson hayotidagi dastlabki ijtimoiy tajriba, axloqiy qarashlar, hissiy barqarorlik va o'ziga bo'lgan ishonch aynan oilada shakllanadi. Oiladagi sog'lom psixologik muhit — o'zaro hurmat, mehr-oqibat, tushunish va qo'llab-quvvatlashga asoslangan munosabatlar — bolaning nafaqat intellektual, balki ma'naviy-ruhiy jihatdan ham yetuk bo'lib kamol topishiga xizmat qiladi. Shu bois oiladagi psixologik muhitni sog'lomlashtirish, ota-onalarning psixologik bilim va madaniyatini oshirish, oilaviy munosabatlarda murosa va tushunishni ustuvor qadriyat sifatida qaror toptirish har bir jamiyat uchun muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki barkamol shaxs — sog'lom oilada, sog'lom muhitda voyaga yetadi, sog'lom oilalar esa mustahkam va barqaror jamiyatning asosi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oila psixologiyasi. Shomurodov G'. B
2. Karimov.A 'Yangi uyni qurmay turib, eskisini buzmay' - Toshkent O'zbekiston 1993-24-b



3. Shaxs shakllanishida oila muhiti jamoa muhiti, jamoat va jamiyatning ta'siri
- 1995
4. Oila psixologiyasi - 15- bet [3:3]
5. ChatGpt